



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th April, 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

YANGI O'ZBEKISTONNING BIRLASHGAN MILLATLAR TASHKILOTI BILAN ALOQALARI VA JAHON HAMJAMIYATIDA TUTGAN O'RNI

Ismatullayev Farhodjon Odiljonovich

TDPU. Tarix fanlari doktori (DSc)

Rajabova Sabina

TDPU. Tarix fakulteti 1 bosqich talabasi

Annotatsiya:

Ushbu maqolada yangi O'zbekistonning Birlashgan Millatlar Tashkiloti va uning boshqa tuzilmalari bilan aloqalariga to'xtalib o'tiladi. O'zbekistonning xalqaro aloqalari qanday rivojlanayotganligi va jahon hamjamiyatida tutgan o'rni haqida muhokama qilinadi.

Tayanch tushunchalar: Xalqaro aloqalar, Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Yunesko.

Аннотация:

В данной статье основное внимание уделяется отношениям нового Узбекистана с Организацией Объединенных Наций и другими ее структурами. Они обсудили как развиваются международные отношения Узбекистана и его место мировом сообществе. Вопрос Афганистана новом Узбекистанею

Основные понятия: Международные отношения, Организация Объединенных Наций, Юнеско.

Abstract:

This article focuses on the relations of the new Uzbekistan with the United Nations and its other structures. It was discussed how Uzbekistan's international relations are developing and its place in the world community. The issue of Afghanistan in new Uzbekistan.

Basic Concepts: International relations, United Nations, Yunesko.



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th April, 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

Yangi O‘zbekistonning tashqi siyosati-barqaror, adolatli va demokratik davlat qurishga, mamlakatimizning tashqi dunyoga ochiqlik tamoyilini ilgari surishga hamda mintaqaviy va ko‘p tomonlama o‘zaro hamkorlikni rivojlantirishga qaratilgan “

Shavkat Mirziyoyev.

Bugungi kunga kelib insoniyat hayoti barcha jabhalarida yuksak o‘rinlarga ko‘tarildi desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Ammo bu o‘zgarishlar o‘zi bilan bir qator yangidan-yangi, ilgari mavjud bo‘lmagan ijtimoiy munosabatlarning vujudga kelishiga turtki bo‘ldi. Davlatlar o‘rtasida integratsiyalashuv jarayoni kengaydi. Millatlar mavjud ekan ular o‘rtasida turli munosabatlar ham mavjud. Bu munosabatlarning insoniyat hayotida nechog‘lik ahamiyatga ega ekanligiga tarix guvoh. Agar o‘tmishga nazar tashlasak, millatchilik, turli irqiy ayirmachilik va shovinistik g‘oyalar ko‘plab janjallarga, qon to‘kilishlariga hattoki jahon urushlariga ma’lum darajada sabab bo‘lganligini ko‘rish mumkin. Mana shunday misli ko‘rilmagan katta talofatlarga sabab bo‘lgan jahon urushlarini boshidan o‘tkazgan insoniyat, endilikda birlashish kerakligini, nizolarni tinch, muzokara yo‘llari bilan hal qilish lozimligini, mustahkam barqarorlikka erishish uchun puxta o‘ylangan tashqi siyosiy faoliyatni amalga oshirish muhim ekanligini anglab yetdi. Birlashgn Millatlar Tashkiloti mana shu anglashlarning hosilasi sifatida vujudga keldi. Bugungi kunda tashkilot boshqa xalqaro tashkilotlarga qaraganda eng yuqori nufuzga ega va zaminimizdagi eng ko‘p davlatlarni birlashtirgan tuzilma hisoblanadi.

BMT barcha davlatlarning aloqalarini muvofiqlashtirishda yetakchi rol o‘ynaydi. Shu jumladan, O‘zbekiston ham bugungi kunda avvalo o‘zining tashqi siyosatida Birlashgan Millatlar Tashkilotiga ustuvor ahamiyat qaratmoqda. Birlashgan Millatlar Tashkilotidagi aloqalarimiz biz uchun juda muhim hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi 1992-yil 2-mart kuni Birlashgan Millatlar Tashkiloti a’zosiga aylandi va BMT Bosh Assambleyasi binosi oldida O‘zbekiston Respublikasining Davlat bayrog‘i ko‘tarildi. Shundan bir yil o‘tib, BMT Toshkentda o‘z vakolartxonasini ochdi. Ushbu vakolatxona hozirda 25 ta agentlik, jamg‘arma va dasturlardan iborat bo‘lib, ular mamlakatni Barqaror rivojlanish maqsadlari hamda 2030-yilgacha mo‘ljallangan rivojlanishning milliy ustuvor yo‘nalishlarga muvofiq shakllantirishda ko‘maklashmoqda. Shuningdek, O‘zbekiston BMTning ta’lim, fan va madaniyat masalalari bilan shug‘ullanuvchi tashkiloti -YUNESKOga



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th April, 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

ham a'zo bo'ldi. BMTda O'zbekiston qator yutuqlarga erishmoqda. Jumladan, 2020-yilda Vatanimiz birinchi marta BMTning Inson huquqlari kengashi a'zosi etib saylandi. O'zbekiston birinchi marotaba 2018-yilda Jenevada bo'lib o'tgan kengashning 37-sessiyasida BMTning Inson huquqlari kengashi a'zosi etib saylanish niyatini e'lon qildi. O'zbekistonning bu tashkilotga a'zo bo'lib saylanishi, shubhasiz, Respublika yutuqlarini xalqaro hamjamiyat tomonidan tan olinganligidan dalolat beruvchi muhim voqeа hisoblanadi.¹

2020-yil 22-fevral kuni Jenevadagi BMTning Inson huquqlari bo'yicha Kengashining 48-sessiyasi bo'ldi. Sessiyada birinchi bo'lib nutq so'zlagan O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev forumning haqiqiy ochilishini boshlab berdi. Kuzatuvchilarning fikriga ko'ra, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning sessiyadagi nutqi tarixiy va g'ayrioddiy bo'lgan va buning bir nechta sabablari bor edi.

Birinchidan, O'zbekiston Osiyo-Tinch okean mintaqaviy guruvida eng ko'p 169 ta ovoz to'plab, 2020-yil oktabr oyida birinchi marta BMTning Inson huquqlari bo'yicha Kengashiga a'zo bo'ldi.

Ikkinchidan, Prezidentimiz o'z nutqi davomida bir qancha ulkan tashabbuslarni taklif qildi, bu mamlakatimiz islohotlar kun tartibini amalga oshirishdan to'xtamasligidan dalolat beradi.

Bu kengashning a'zosi bo'lish juda katta yutuq. Zero, biz hozir inson huquqlari ustuvor bo'lgan jamiyatda yashamoqdamiz. Mamlakatimiz ham buni bilgan holda harakat qilmoqda. Masalan, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining qabul qilinganligining 75 yilligi mamlakatimizda keng miqyosda nishonladii va O'zbekiston BMT inson huquqlari bo'yicha Oliy komissari boshqarmasi fondiga ixtiyoriy badal sifatida 100 ming dollar o'tkazib berdi. Bundan ko'rinish turibdiki, mamlakatimiz xalqaro aloqasining yo'nalishlari har tomonlama, har qanday vaziyatga moslashib rivojlanib bormoqda.

Mamlakatimiz uchun ayniqsa, qoraqalpoq xalqi uchun muqaddas hisoblangan Orol dengizi kundan-kunga qurib bormoqda. Bu dengiz uzoq o'tmishdan shu yerda yashaydigan xalqlar uchun hayot manbai edi. Qoraqalpoq gilamlarida ham suvni, dengizni eslatadigan naqshlar juda ko'p uchraydi. Ming afsuski, bu ulug'vor dengiz, atrofida hayot qaynagan joylarda hozir yangi Orolqum cho'li vujudga keldi va juda

¹ Узбекистан впервые избран в Совет ООН по правам человека. <https://www.gazeta.uz/ru/2020/10/14/hr/>



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th April, 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

ko‘p miqdorda uning tagida tuz yig‘ilib qolgan. Bu yerda to‘plangan tuzlar nafaqat, mamlakatimiz, balki, butun dunyo bo‘yicha hal qilinishi zarur bo‘lgan ekologik muammoga aylandi. Bu masalada O‘zbekiston Birlashgan Millatlar Tashkiloti bilan juda ko‘p ishlarni amalga oshirdi. Bu tashkilot O‘zbekistonni har tomonlama qo‘llab-quvvatlamoqda. Orol muammosini hal etishda xalqaro hamkorlikni qaytarish maqsadida BMT bilan birga tuzilgan Orol dengiz mintaqasida inson xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha ko‘p tomonlama Trast fondi o‘z amaliy faoliyatini boshladi. Mamlakatimizga hatto, BMT bosh kotibi Antoniy Guterrish ham tashrif buyurib, Orol dengizingning ayanchli ahvolini o‘z ko‘zi bilan ko‘rdi. Hozir O‘zbekiston Orol muammosiga jahon hamjamiyatining e’tibori qanchalik muhim ekanligini bilib, shunga mos harakat qilmoqda. O‘z navbatida jahon ham bunga befarq qarab turgani yo‘q, moddiy va ma’naviy yordam ko‘rsatmoqdalar.

BMT O‘zbekistonda amalga oshirish uchun harakat qilayotgan maqsadlar: 1. O‘ta qashshoqlikka barham berish, 2. Ochlikka barham berish, 3. Sog‘lik va farovonlik, 4. Sifatli ta’lim, 5. Gender tengligi, 6. Toza suv va sanitariya, 7. Arzon va toza energiya, 8. Munosib ish o‘rinlari va iqtisodiy o‘sish, 9. Sanoatlashtirish, 10. Tengsizlikni kamaytirish, 11. Barqaror shaharlar va aholi yashash joylari, 12. Mas’uliyatli iste’mol va ishlab chiqarish, 13. Iqlim o‘zgarishiga qarshi kurashish, 14. Dengiz ekotizmini asrash, 15. Quruqlikdagi ekotizmni asrash, 16. Tinchlik, adolat va samarali boshqaruv. 17. Barqaror rivojlanish yo‘lida hamkorlik.²

BMT mamlakatimizni har bir sohada qo‘llamoqda. Bu tashkilotning mamlakatimizda amalga oshirmoqchi bo‘lgan ishlarini yuksak baholaymiz. BMT O‘zbekiston uchun dolzarb muammolarni yechishga o‘z yordamini ayamay, harakat qilyapti. Shu tariqa O‘zbekiston hamda BMT o‘rtasidagi har tomonlama hamkorlik muvafaqiyat bilan ravnaq topib bormoqda. Bundan keyin ham mamlakatimiz va jahondagi yirik tashkilot BMT bilan munosabatlari tenglik va manfaatli sheriklik asosida rivojlanishiga ishonamiz.

Mamlakatimiz shuningdek, BMTning boshqa tuzilmalari bilan hamkorlikni ham kuchaytirmoqda. BMT ning fan, madaniya va maorif sohasidagi tashkiloti Yunesko bilan aloqalarimiz yangi bosqichga qadam qo‘ymoqda, Har bir davlatni dunyoga ko‘rsatuvchi narsa bu uning madaniyati hisoblanadi. Hech bir narsa madaniyat, qadriyatlarchalik davlatni dunyoga tanita olmaydi. Bizning Vatanimiz tarixi,

²uzbekistan.un.org



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th April, 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

madaniyati shu qadar xilma-xil, qiziqarlikni bu bilan biz har doim faxrlanamiz. Bu madaniyat, tariximizni dunyoga tarannum etishda Yuneskoning ahamiyati katta. Hozirga qadar O‘zbekiston nomoddiy madaniy merosining milliy ro‘yxatida 74 ta obyekt mavjud. Umumjahon merosining noyob namunasi sifatida yurtimizdagi 4 ta qadimiy shahar- Samarqand, Buxoro, Xiva, Shahrisabzning Yunesko ro‘yxatiga kiritilgani , Toshkent davlat sharqshunoslik instituti huzurida Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharq qo‘lyozmalari markazida to‘plangan nodir qo‘lyozmalar „Jahon xotirasi“ ro‘yxatiga kiritilgani mamlakatimizning mazkur xalqaro tashkilot bilan izchil va samarali hamkorligining samarasini hisoblanadi deb aytishimiz mumkin. Yana Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov tashabbusi bilan tashkil etilgan „Sharq taronalari“ xalqaro musiqa festivalini ham alohida qayd etishimiz mumkin. Har ikki yilda bir marta Samarqandning Registon maydonida o‘tkaziladigan mazkur tadbirda turli davlatlardan ishtirokchilar qatnashadi. Samarqandga kelgan bu ishtirokchilar Registon maydonida turib o‘z san’atlarini ko‘rsatishadi. Bu festivalda yurtimizga kelgan mehmonlar uning naqadar boy tarixga ega ekanligini guvohi bo‘ladi. Zero, bu shahar Sohibqiron Amir Temur davlatining poytaxti, Registon maydoni esa Mirzo Ulug‘bek merosining bir parchasidangina dalolat beradi.

So‘ngi yillarda mamlakatimizda kechayotgan tub yangilanishlar, izchil va faol tashqi siyosat tufayli yurtimizning xalqaro nufuzini yanada oshirmoqda.O‘zbekistonning milliy manfaatlariga mos keladigan puxta tashqi siyosatida xalqaro tashkilotlarga qo‘shilish, regional tashkilotlar bilan siyosiy, diplomatic, iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy, madaniy aloqalar o‘rnatish maslahari alohida o‘rin tutadi. Shu bois O‘zbekiston jahon iqtisodiyotida integratsiyalashish yo‘lidan borib, Jahon banki, Xalqaro Valyuta fondi, Xalqaro Moliya korporatsiyasi va boshqa moliyaviy tashkilotlarga ham a’zo bo‘lib kirib ular bilan hamkorlikni yanada rivojlantirish tarafdiri.

Xalqaro tashkilotlar bilan aloqalarimiz faollashuvi natijasida hukumatimiz jahondagi nufuzli davlatlar Germaniya, XXR, Turkiya, Yaponiya, Italiya, Buyuk Britaniya kabi mamlakatlar bilan o‘zaro manfaatli aloqalar o‘rnatishga erishildi.Xususan, Italiya bilan aloqalarimiz juda jam rivojlanmoqda. Mamlakatizmiz Prezidenti joriy yilda ushbu davlarga ikki marotaba tashrif buyurdi va yangidan-yangi hamkorliklarga yo‘l ochildi.

Oliy va yuqori darajadagi tashriflar davomida mamlakatimizning milliy manfaatlariga mos keladigan hamda xorijiy davlatlar bilan aloqalarni kengaytirishga



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th April, 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

qaratilgan faol, ochiq, pragmatik va chuqur o‘ylangan tashqi siyosiy yo‘nalishini rivojlantirish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda.³

Xulosa qilib aytganda xalqaro tashkilotlar, davlatlar o‘rtasidagi aloqalar maqsad va manfaatlarga qarab turlicha ahamiyat kasb etadi. Ular turli xil davrda, sharoitlarda vujudaga kelgan bo‘lib xalqaro siyosatda turlicha mavqedha bo‘ladi. Yangi O‘zbekistonning xalqaro aloqalar kundan kunga rivojlanib bormoqda, jahon hamjamiyatida tutgan o‘ni ham o‘smoqda. Tashqi siyosatda faqat birgina manfaat yotadi, u ham bo‘lsa, xalqimizning manfaatlari va uning roziligidir. Hozir olib borayotgan tashqi siyosat xalqimiz tomonidan maqullanyapti va xalqaro hamjamiyat tomonidan e’tirof etilmoqda.

Foydalanilgan manbaalar

1. Shavkat Mirziyoyev, Yangi O‘zbekiston strategiyasi 2023-yil.
2. Узбекистан впервые избран в Совет ООН человека. <https://www.gazeta.uz/ru/2020/10/14/hr/>
3. uzbekistan.un.org.

³ Shavkat Mirziyoyev. Yangi O‘zbekiston strategiyasi, 2023-yil, 332-bet